


## SURXONDARYO VILOYATIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI 2018/2019-O'QUV YILI BOSHIGA


Xalq ta'limi vazirligi hamda boshqa idoralarning umumta'lim muassasalari, shuningdek, mulkchilik va tashkiliy – huquqiy shaklidan qat'iy nazar litsenziya asosida nodavlat xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan davlat statistika hisobotlari ma'lumotlari bo'yicha 2018/2019-o'quv yili boshiga umumiyl o'rta ta'limning asosiy statistik ko'rsatkichlari shakllantirildi.

Surxondaryo viloyatida 2018/2019 o'quv yili boshida jami umumta'lim muassasalari soni 869 tani tashkil etib, ulardan 571 tasi (65.7%) qishloq joylarda, 298 tasi (34.3 %) shaharlarda joylashgan.

**Umumta'lim muassasalarining shahar va qishloq joylar  
bo'yicha taqsimlanishi, %**



## Umumiy o'rta ta'lif muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlik



O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich (1-4-sinflar) va o'rta (5-9-sinflar) ta'lif bosqichlariga bo'linadigan, davomiyligi 11 yildan iborat bepul majbuliy umumiy o'rta ta'lif joriy etilgan.

### Umumta'lif muassasalaridagi o'quvchilar soni

2018/2019-o'quv yili boshiga



Sinf guruhlari bo'yicha umumta'lif muassasalaridagi o'quvchilar soni, kishi

1 - 4 sinflar - 200124

5 - 9 sinflar - 205098

10 - 11 sinflar - 66076

Mashg'ulotlar bitta tilda olib boriladigan maktablar soni - 769 ta

Mashg'ulotlar turli tillarda olib boriladigan maktablar soni - 100 ta


2018/2019-o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining jami o'quvchilari soni 472.3 ming kishini tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, o'quvchilar soni qariyib 11.7 % ga o'sdi. O'quvchilar sonining ortishi umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida 10-11-sinflarning tashkil etilishi bilan bog'liq bo'lib, ulardag'i o'quvchilar soni o'tgan yilga nisbatan 59.1 % ga (39 ming kishiga) ko'paygan.

**2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida umumta'lim muassasalaridagi o'quvchilar soni, kishi**

	2017/2018 o'quv yili boshiga	2018/2019 o'quv yili boshiga
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>422079</b>	<b>472269</b>
Termiz sh	22531	25525
Oltinsoy	28100	31380
Angor	20157	22842
Boysun	21304	23635
Muzrabod	21442	24183
Denov	64281	69537
Jarqo'rg'on	34313	38458
Qumqo'rg'on	38959	45329
Qiziriq	28724	32104
Sariosiyo	31775	35272
Termiz t	18086	20650
Uzun	28221	31741
Sherobod	29278	32830
Sho'rchi	63908	38783

2018/2019-o'quv yili boshiga mashg'ulotlar smenaliligi bo'yicha umumta'lim muassasalari sonining taqsimlanishi quyidagicha: 10,2 % maktab bir o'quv smenasida (2017/2018-o'quv yili boshiga 14,4 %), 89,3 % maktab ikki o'quv smenasida (2017/2018 o'quv yili boshiga 85,1 %) hamda 0,5 % maktab uch o'quv smenasida ishlaydi. Smenalar bo'yicha ta'lim olayotgan bolalar sonining taqsimlanishi quyidagicha: birinchi smenada 62,3 % (2017/2018-o'quv yili boshiga 65,0 %), ikkinchi smenada 37,6 % (2017/2018-o'quv yili boshiga 34,9 %), uchinchi smenada 2017/2018-o'quv yili boshidagi kabi, ya'ni 0,1 % o'quvchilar ta'lim olmoqda.


### Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi\*, %



\* Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lган bolalar uchun maktablarsiz

## Umumta'limga muassasalarining pedagog xodimlari

### O'qituvchilar soni (o'rindoshlarsiz), kishi




#### Umumta'limga muassasalarini pedagog hodimlarining shahar va qishloq joylar bo'yicha taqsimlanishi,kishi

O'quv yili boshi	Shahar joylarda	Qishloq joylarda
2017/2018	14148	21189
2018/2019	15387	22841

2018/2019 o'quv yilining boshida  
o'qituvchilar umumiyligi sonida pedagogik  
ta'limga oqigan o'qituvchilar ulushi

#### Pedagog xodimlarning umumiyligi sonida ayollarning ulushi

O'quv yili boshi	Ayol o'qituvchilar ulushi, %	boshlang'ich sinf o'qituvchilariga nisbatan, %
2017/2018	55,9	79,9
2018/2019	55,8	80,3




ma'lumot uchun: 2017/2018 o'quv yili boshida  
ushbu ko'rsatkich 99,0 % bo'lgan.

Yuqoridagi grafik va diagrammalardan ko'rinish turibdiki, umumta'lim muassasalarining shtatdagi xodimlari 2018/2019 o'quv yili boshiga 7,1 foizga o'sdi va 38228 kishini tashkil etdi. Shahar joylarida o'sish 6,7 % ga, qishloq joylarida esa 7,8 % ga bo'lgan.

Shu bilan birga, 2018/2019-o'quv yili boshiga oliy ma'lumotli o'qituvchilar sonining o'sishi 7,1 % ni, o'rta maxsus ma'lumotlilar – 6,9 % ni tashkil etdi. Bu esa, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining o'qituvchilar safiga qo'shilayotganligini ko'rsatadi. Jami o'qituvchilarga nisbatan ayol - o'qituvchilarning ulushi 2017/2018-o'quv yilidagi 55,9 % dan 2018/2019-o'quv yiliga kelib 55,8 % ga yetdi. Surxondaryo viloyatida bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri kelmoqda.


### **2018/2019-o'quv yili boshiga hududlar kesimida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi**



Keltirilgan jadvaldan ko'rinishdiki, bir nafar o'qituvchiga to'g'ri keladigan yuklama nisbatan ko'proq Termiz shahrida - 20 o'quvchi, Uzun, Qiziriq, Termiz, Qumqo'rg'on va Boysun tumanlarida bir nafar o'qituvchiga 12 o'quvchidan to'g'ri keladi. Bir o'qituvchi uchun 11 va 10

kishidan iborat eng kichik yuklama Muzrabod, Angor hamda Sherobod,Oltinsoy tumanlarida qayd etilgan.

### 2018/2019 o'quv yili boshiga umumta'limga muassasalaridagi oliy va o'rta ma'lumotli o'qituvchilar ulushi, %



Manba: Umumta'limga muassasalarining 2018/2019 o'quv yili boshiga 2 ta'limga statistik hisoboti ma'lumotlari asosida tayorlandi.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**      (71) 230-85-88,  
**Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**      (76) 223-07-34